

MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINING TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHATLARI

Toshmurodova Charos Rustamjonovna

*JDFU 1-kurs Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi
(geografiya) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, Markaziy Osiyo davlatlarining ta'lim tizimining uzoq o'tmishidagi muammo va kamchiliklari o'rganilgan. Shuningdek, bugungi ta'lim taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar hamda ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni olib kirish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'z: *Islohot, texnologiya, pedagogik, tamoyil, ijtimoiy, innavatsion*

Аннотация: *В данной статье изучаются проблемы и недостатки системы образования стран Центральной Азии в далеком прошлом. Также была дана и проанализирована информация о факторах, влияющих на развитие образования и этапах внедрения современных педагогических и информационных технологий в систему образования.*

Ключевые слова: *Реформа, технология, педагогический, принцип, социальный, инновационный.*

Abstract: *In this article, the problems and shortcomings of the education system of the Central Asian countries in the long past are studied. Also, information about the factors influencing the development of education and the stages of introducing modern pedagogical and information technologies into the education system was given and analyzed.*

Key word: *Reform, technology, pedagogical, principle, social, innovative.*

Dastlab Markaziy Osiyo davlatlari 69 yil (1922-1991) mobaynida Rossiya ta'siri ostida bo'lib kelgan. Bu davlatlar siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy qaramlik bilan birgalikda, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham markazdan turib boshqarilgan.

Mustaqillik yillari (1991) Markaziy Osiyo davlatlari uchun har tomonlama rivojlanish tamoyillarini belgilashga imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu o'zgarishlar bilan bir qatorda mustaqil bo'lgan davlatlar qarshisida misli ko'rinmagan muommolar kelib chiqishi shubhasiz edi. Ammo yillar davomida muommolarni hal etishda dastavval davlat rahbarlari asosiy e'tiborni boshqa sohalarda bilan birgalikda mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan ta'lim sohasiga qaratdi. Mintaqada ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarni zamon bilan hamnafas milliy mentaletimizdan kelib chiqqan holda qayta moderenezatsiya qilishga etibor qaratdi. Biroq, siyosiy jarayonlarga ko'ra bu yo'nalishdagi ijobiy o'zgarishlar barcha davlatlarda ham birdek kechmagan.

Dastavval o'qitish 3 bosqichda:

birinchi bosqichi matkabgacha ta'lim muassasasi (MTM) larda maktab yoshigacha bo'lgan bolalar bilan olib borilgan;

ikkinchi bosqichda O'zbekistonda 11-yillik ta'limga asoslangan bo'lib, 9-sinfdan keyin hohishga ko'ra, o'quvchilar kasb-hunar o'qitishga ixtisoslashgan texnikumlarga yo'naltirilgan;


uchinchi bosqichda maktabdan so'ng yoshlar, 5-yil mobaynida oliygohlarda o'z ta'lim faoliyatlarini olib borishlari mumkin bo'lgan.

Markaziy Osiyo ta'lim tizimida zamon ruhiga mos ravishda o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy ilg'or texnologiyalarni mamlakatlarga joriy qilayotgan rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan orqada qolish, XX-asrning 70-80 yillaridan yuzaga kela boshlagan. Negaki, maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning asosiy qismi uy sharoitida tarbiyalangan. Ta'lim muassasalaridagi moddiy texnik bazalar, dars o'qitish uchun kerakli bo'lgan jihozlar talab darajasida bo'lmagan. Jumladan, ba'zi bog'cha va maktablar qoniqsiz holatida bo'lib, isitish va kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlanmagan. Bunday muassasalarning asosiy qismi, qishloq va shaharlarning chekka hududlariga to'g'ri kelgan. Faqat markazda joylashgan rus, qozoq tillarida ta'lim beruvchi muassasalar holati talab ko'rsatkichlariga ega bo'lgan (1-rasmga qarang).

Oliy ta'limda ham rus tilining ustunligi sezilarli darajada bo'lgan. Shu bilan birgalikda dars vaqtida dala yig'im-terimlariga o'qituvchi va o'quvchilarni doimiy ravishda jalb etish, zamonaviy telekamunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini faqat nazariy tarzda olib borilgan. Iqtisodiy holat past darajada ekanligi sababli bu texnologiyalarni birdaniga ta'limga joriy etilmagan. Mintaqada mahalliy kadrlar kamligi va ta'lim muassasalarida ishlayotgan xodimlarning aksariyat qismini yetarli darajada ko'nikmaga ega bo'lmagan. Shu bilan birgalikda, mintaqada o'qitiladigan darsliklardagi keskin farqlar, adabiyotlarning kattagina qismi rus tilida nashr ettirilganligi sababli rus tilini bilmagan yoshlarga bir qator muommolar keltirib chiqarishi kabi to'siqlar qo'rshovida qolgan edi.

Mintaqada davlatlar mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'limda tubdan o'zgarishlar natijasida erishilayotgan yutuqlar yoshlar kelajagida muhim ro'l o'ynadi. Ijtimoiy sohaning asosi bo'lgan ta'lim tizimini yangicha zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy yondoshuvlar kuchaytirildi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish va yanada takomillashtirish borasida zamonaviy chora tadbirlar qabul qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.



Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “ Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz ” degan fikrini keltirishimiz mumkin.

Mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan dars mashg’ulotlarini olib borish, oliy o’quv yurtlariga qamrov darajasi va sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va innavatsion tuzilmalarni shakllantirish, xorijiy universitetlarning filiallarini tashkil etish va invetetsiyalar kiritish, aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllarini tiklash, qabul kvotalarini oshirish kabi islohotlar olib borilmoqda. Bularning barchasi o’z navbatida ijtimoiy sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” T.: O’zbekiston, 2017. 24-b. 2
2. www.samdu.uz Alisher Tilavov, Samarqand Davlat Universiteti magistri
3. Davlat statistika qo’mitasi.